

# ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

**NORBOYEV Sardor Qavmiddinovich**

*Buxoro davlat pedagogika instituti*

*“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi*

*o‘qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13970975>

## О‘ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASIDA KO‘PPARTIYAVIYLIKNING SHAKLLANISHI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalarning shakllanish bosqichlari, ularning huquqiy maqomi va shuningdek faoliyat doirasi atroflicha yoritilgan. Ko‘ppartiyaviylikning ilmiy mohiyati, tendensiyalari va rivojlanish jarayonlari ushbu maqolada ilmiy asoslantirib berilgan. Shuningdek, har bir faoliyat olib borayotgan partiyaning mohiyati, shakllantirilgan vaqtlari va ularning sohaviy mafkuralari haqida ma’lumotlar maqolaning bayonida aks ettirilgan.

**Kalit so‘zlar:** ko‘ppartiyaviylik, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi, O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi, “Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati -O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O‘zbekiston Ekologiya partiyasi.

## МНОГОПАРТИЙНОСТЬ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ФОРМИРОВАНИЕ И ЭТАПЫ ЕГО РАЗВИТИЯ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье подробно рассмотрены этапы становления политических партий в Республике Узбекистан, их правовой статус, а также сфера их деятельности. В статье научно обоснованы научная сущность, тенденции и процессы развития многопартийности. Также в описании статьи отражена информация о характере каждой активной партии, времени их формирования и отраслевой идеологии.

**Ключевые слова:** многопартийность, Народно-демократическая партия Узбекистана, Социал-демократическая партия Узбекистана «Адолат», Демократическая партия Узбекистана «Национальное возрождение», «Движение предпринимателей и деловых людей -Либерально-демократическая партия Узбекистана», Партия экологии Узбекистана.

## OF MULTIPARTY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN FORMATION AND STAGES OF ITS DEVELOPMENT

### ANNOTATION

In this article, the stages of formation of political parties in the Republic of Uzbekistan, their legal status, as well as the scope of their activities are detailed. The scientific essence, trends and development processes of multipartyism are scientifically justified in this article. Also, information about the nature of each active party, the time of their formation and their sectoral ideologies is reflected in the description of the article.

**Key words:** multipartyism, People's Democratic Party of Uzbekistan, "Adolat" social-democratic party of Uzbekistan, "National Revival" democratic party of Uzbekistan, "Entrepreneurs and businessmen's movement - Liberal-Democratic Party of Uzbekistan", Party of Ecology of Uzbekistan.

**Ko'ppartiyaviylik** -demokratiya rivojlangan davlatlarda siyosiy voqelikni yaratishning muhim konstitutsiyaviy prinsiplaridan biri, siyosiy va g'oyaviy plyularizmni ancha umumiy bo'lgan prinsipining ifodasi hisoblanadi. Ko'ppartiyaviylik prinsipi huquqiy tomondan mamlakat shaxslarining o'z g'oyalariga mos holatda siyosiy partiyalarga qo'shilish huquqini, hamma birlashmalarining huquq bo'yicha bir xil ekanligini, harakat dasturlarining ixtiyoriyligini belgilashi va muhrlashini bildiradi. Ushbu tamoyil hukumatning millatga xos, ateistik, terroristik yohud siyosiy parokandalikni, huquqiy mamlakat tashkilotlarini zo'rlik bilan qulatishni namoyish qiladigan va shuningdek, o'zgacha tarzda hozirda mavjud bo'lgan tartibni yakson qiladigan jamoat birlashmalarini huquqiy hujjatda ko'rsatilgan yo'sinda taqiqlashi hamda yoyib yuborishi ehtimoldan holi emas. Binobarin, yurtimizda chinakam ko'ppartiyaviylik mexanizmining yaratilishi hozirda bor bo'lgan hamma siyosiy partiyaning faoliyatiga mutanosibdir.

Shu sababli ham O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, "Har bir partiya muayyan ijtimoiy qatlamga tayangan holda, ana shu toifa manfaatlarining himoyachisi sifatida o'zining aniq ravshan harakat dasturiga ega bo'lishi kerak. Unda har qaysi partiyaning maqsad va vazifalari, jamiyat taraqqiyoti borasidagi muqobil takliflar o'z ifodasini topishi lozim. Amalda ko'ppartiyaviylik -bu har xil kurash va g'oyalar o'rtasidagi bahs-munozara, turli partiyalar, jumladan muxolif partiyalar uchun ham siyosiy raqobat maydonidir" [1].

Partiyalar faoliyatini harakatga keltiruvchi kuchlar -bu xalq va turli guruhlarning maqsad va manfaatlari, qadriyatlarini, orzu-istaklari va g'oyalaridir. Partiya o'z faoliyati orqali a'zolarining manfaat va ehtiyojlarini davlat boshqaruvi organlariga yetkazib turadi. Ko'ppartiyaviylik, aslida, mamlakatimizda o'z ehtiyoj va fikrlariga ega bo'lgan har bir xalq vakili va birlashmalarining dastur va harakatlarini batamom ko'rsatish maqsadida ham zarur.

Sababi yashash bor ekan, fuqaro bor ekan, xohlagan toifa o'zining mafaatlarini turli harakatlar orqali bajarishga intiladi, bu hayotni qay holatda yaratish kerak, shaxs, oila qanaqangi holatda tinch va xotirjam hayot kechirishi mumkin, deb atalgan muammolar orasida gap boradi, xohlasa, huquqiy yo'llar orqali o'z motivlariga qozonishni xohlaydi.

Fuqarolik jamiyatining muhim talablaridan biri -siyosiy va mafkuraviy hurfikrlik (plyuralizm)ning, insonlar mustaqil fikrlash huquqining kafolatlanganligida hisoblanadi. Siyosiy fikrlar va institutlar xilma-xilligining amaliy qiyofasi -jamiyatda ko'ppartiyaviy tizim mavjud bo'lishidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi bilan mamlakatda ko'ppartiyaviylik qaror topishi uchun huquqiy asos vujudga keltirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Biz bugun, demokratik o'zgarishlar davrida mamlakatimizning siyosiy, ijtimoiy hayotida bevosita va faol ishtirok etish niyatida bo'lgan fuqarolarimizning salohiyatli to'la namoyon bo'lishini ta'minlashimiz zarur.

Bu borada ko‘ppartiyaviylik tizimi, partiyalararo bahs-munozara, fikrlar va dasturlar o‘rtasidagi raqobatni jadal rivojlantirish muhim ahamiyatga ega” [2].

Siyosiy va mafkuraviy plyuralizm, fikrlar xilma-xilligi hamda ularning erkin bayon etilishi - demokratik jamiyatning zaruriy xususiyati sanaladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar tufayli siyosiy hayotda qariyb o‘ttiz yil mobaynida tom ma‘nodagi ko‘ppartiyaviylik muhiti ta‘minlab kelinmoqda. Siyosiy partiyalar muayyan ijtimoiy qatlamlar, guruhlar, fuqarolar va ularning uyushmalarining fikrini, nuqtai nazarini ifodalovchi muhim demokratik institut hisoblanadi.

Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov aytib o‘tganlari kabi: “Har bir partiya muayyan ijtimoiy qatlamga tayangan holda, ana shu toifa manfaatlarining qo‘riqchisi sifatida o‘zining aniq va ravshan harakat dasturiga ega bo‘ladi. Unda har qaysi partiyaning maqsad va vazifalari, jamiyat taraqqiyoti borasidagi muqobil takliflari o‘z ifodasini topishi lozim. Amalda ko‘ppartiyaviylik -har xil qarash va g‘oyalar o‘rtasidagi bahs-munozara, turli partiyalar, jumladan muxolif partiyalar uchun ham siyosiy raqobat maydonidir” [3].

Taniqli fransuz siyosatshunos olimi M.Dyuverje aytganidek, “Siyosiy tizimda ko‘ppartiyaviylik qaror topgan taqdirdagina davlat xalq manfaatlarini ifoda eta olishi, umummilliy manfaatlarni, sinflar, ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ustunligini ta‘minlay olishi va jamiyatdagi barqarorlikning mustahkam negizini tashkil qila olishi mumkin” [4].

Siyosiy tizimning rivojlanish darajasi, xilma-xillik va konstitutsiyaviy tuzumda ko‘ppartiyaviylik tuzumining shakllanishi bevosita hokimiyat uchun kurash olib boruvchi ijtimoiy-siyosiy kuchlarning siyosiy mafkuralar sifatida siyosiy sohada faol bo‘lishiga omil bo‘lib xizmat qiladi.

Boshqa tomondan, siyosiy partiyalar, umumiy shakllangan tajribaga ko‘ra xorijiy mamlakatlarda ham, bizning mamlakatimizda ham turli ijtimoiy qatlam va birlashmalarning siyosiy maqsadini ko‘rsatadilar va o‘zlarining demokratiyaga asoslangan yo‘nalishlar orqali saylab qo‘yiladigan hamrohlari bilan mamlakat hokimiyati organlarini tashkil etishda ommaviy-siyosiy hokimiyatni amalga oshirishda ishtirok etadilar.

Yuqorida tilga olinganidek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham mamlakatda siyosiy plyuralizm (fikrlar xilma-xilligi) va ko‘ppartiyaviylikning qaror topishi uchun huquqiy asos mustahkamlangan: “O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emas” (12-modda) [5].

Mustaqillikning dastlabki yillarida vujudga keltirilgan huquqiy baza asosida mamlakatimizda ko‘ppartiyaviylik quyidagicha shakllandi. Bu O‘zbekistonda siyosiy partiyalarning tashkil topishi jarayoni bilan izohlanadi.

**“O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi** 1991-yil 1-noyabrda uning ta‘sis qurultoyida tashkil topgan. O‘z faoliyati davomida partiyaning 10ta qurultoyi bo‘lib o‘tgan. **Partiyaning maqsadi** -davlat hokimiyatining vakillik organlarida davlat va jamiyat tomonidan manzilli ijtimoiy himoya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga ehtiyojmand aholi qatlamlari manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir” [6].

**“O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi** 1995-yil 18-fevralda tashkil topgan. **Partiyaning maqsadi** -huquqiy-demokratik davlat, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish hamda O‘zbekiston hududida yashayotgan barcha millat va elatlarning umumiy manfaatlariga mos keladigan, fuqarolarning qonun oldida tengligi, birdamligi, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari ta‘minlangan ma‘naviy jipslashgan jamiyatni taraqqiy toptirishda faol ishtirok etishdir” [7].

Partiya mafkurasining asosini sotsial-demokratiya g‘oyalari tashkil etadi.

**“O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi** 1995-yil 3-iyunda yaratilgan.

**Partiya maqsadi** -barqaror milliy rivojlanishni ta'minlash, milliy manfaatlarni himoya qilish va ilgari surish, ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar, boy tarixiy merosni saqlash va boyitish, mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga hissa qo'shishdan iborat" [8]. Partiya mafkurasi esa konservatizm g'oyalari asoslangan.

**"Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati -O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O'zLiDeP)** ustavi va dasturi 2003-yil 15-noyabrda bo'lib o'tgan ta'sis syezdida tasdiqlangan. **Partiya maqsadi** -siyosiy kuch sifatida birlashgan holda tadbirkorlar, ishbilarmonlar va fermerlarning yanada kengroq faoliyat yuritishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ularning istiqbolini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berish, jamiyatning mazkur qatlami, manfaatlarini himoyalash va ertangi kunini ta'minlash, shu ijtimoiy toifa nomidan O'zbekistonning siyosiy sahnasiga chiqish va o'zining munosib o'rnini egallashdir" [9]. Partiyaning mafkurasi liberal-demokratiya hisoblanadi.

"Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan eng yosh siyosiy partiya bu **-O'zbekiston Ekologiya partiyasi** hisoblanadi. Ushbu partiya 2019-yil 8-yanvarda O'zbekiston Ekologik harakatining umumiy yig'ilishi (ta'sis qurultoyi)da tashkil etilgan. **Partiya maqsadi** -mamlakatning barqaror rivojlanishiga, ekologik xavfsizligiga erishish, hozirgi va kelajak avlod uchun qulay atrof-muhit yaratish hamda tabiiy resurslarni saqlashga yo'naltirilgan davlat siyosatini ro'yobga chiqarishni ta'minlash, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslarni saqlash davlat, jamiyat va mamlakat har bir fuqarosining vazifasi bo'lishiga erishishga ko'maklashishdan iboratdir" [10].

Adabiyotlar tahlillarida har xil turdagi partiyalarning paydo bo'lishi natijasida mamlakatda siyosiy ong, fikrlarning xilma-xilligi (plyuralizm) yuzaga kelishi ta'kidlangan. "Plyuralizm, ya'ni fikrlar xilma-xilligi va qarashlarning rang-barangligi ma'rifiy jamiyatga xos bo'lib, muayyan haqiqatni turlicha izohlash, tuchunish va talqin etish tamoyiliga asoslanadi" [11].

Ma'lumki partiyalarning demokratiyani tashkil etishdagi bevosita natijasi ularning jamoat tashkiloti bo'lganliklaridan yuzaga keladi, ya'ni siyosiy partiya xalq vakillik organlarini amalga oshirish niyatida xalqning ijtimoiy qarashini bildirovchi katta xalq tashkiloti sifatida ko'rinadi.

Bugungi kunda davlatimizda bo'lgan siyosiy partiyalarning yuksak konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarining takomillashuvi olimlar tomonidan turli qismlarga bo'lingan holatda o'rganilgan hisoblab, ularni alohida ko'rib, tadqiqotimiz doirasida o'z qarashlarimizni asoslab beramiz. Ko'plab tadqiqotchilar mamlakatimizda siyosiy partiyalar paydo bo'lishini uch bosqichga bo'lib tahlil qilishgan:

**"Birinci bosqich (1991-1996).** Bu vaqtda aslida siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslarini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risidagi qonuni tashkil etgan" [12].

Bu vaqt davomida, ya'ni, 1994-yilda amalga oshirilgan saylovlar va xalq siyosiy hayotida partiyalar tepadagi huquqiy manbalar orqali dastlab qatnashdilar.

**Ikkinchi bosqich (1996-2007).** Bu paytda eng kerakli jihat 1996-yil 26-dekabrda "Siyosiy partiyalar to'g'risida" maxsus qonunning qabul qilinishi bilan izohlanadi. Bu qonunning yaratilishi partiyalar faoliyatining huquqiy asoslarini yanada kengroq tarzda kuchaytirdi. Mazkur qonunda ilk marotaba siyosiy partiyaga huquqiy ta'rif berildi.

Ayniqsa, qonunning 1-moddasiga ko'ra, "siyosiy partiya - qarashlari, qiziqishlari va maqsadlari mushtarakligi asosida tuzilgan, jamiyat muayyan qismining davlat hokimiyatini shakllantirishdan iborat siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining ko'ngilli birlashmasidir" [13].

Ikkinchi bosqichning muhim tomonlaridan biri bu -2004-yil 30-aprelda "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishidir. Bu davrda ham muhim o'zgarishlar sodir bo'lgan.

**“Uchinchi bosqich (2007-hozirgacha).** O‘zbekiston Respublikasida 2010-yil 12-noyabrda mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada shuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi” [14].

U yurtimizda demokratiyaga asoslangan o‘zgarishlarni yaxshigina takomillashtirish va fuqarolik jamiyatini yaxshilash paytida partiyalarning xalq va mamlakatni boshqarishdagi rolini yaxshilash sababli ham yaxshigina dalda bo‘ldi. “Konsepsiyadagi ustuvor vazifalardan kelib chiqib, 2011-yilda O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarning bir qator moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalarning kiritilishi mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim qadam bo‘ldi” [15].

Shunday qilib, bugungi kunda partiya birlashmalarining vujudga kelish hamda taraqqiy etish yo‘nalishlarini tepada aytib o‘tganimizdan boshqa bir qancha vaqtlarga taqsimlash muammolari o‘rganuvchilar tarafidan o‘rganilgan. Quyida esa O‘zbekiston siyosiy partiyalari faoliyatini, ularning paydo bo‘lishi va tashkil topishi holatlarini bir nechta yo‘nalishlarga taqsimlab o‘rganishganliklarini tahlil qilamiz. “Masalan, Q. Jo‘rayev O‘zbekistonda siyosiy partiyalarning shakllanishini quyidagi ikki davrga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etadi:

1) bir partiyalilik, siyosiy diktatorlikdan qutulish, muqobillik asosidagi Prezident saylovlari, yuqori darajadagi davlat hokimiyati tuzilmalarini yangilash davri bo‘lgan 1991-1994-yillar;

2) jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayonlarining kuchayishi uchun muhim bosqich bo‘lgan, ko‘ppartiyaviylikka tayangan jamiyatning huquqiy fundamentiga asos solingan, qonunlar qabul qilingan, yangi partiyalar tuzilgan 1995-1999-yillar” [16].

“V. Dubkov esa siyosiy partiyalarning shakllanish va rivojlanish jarayonini to‘rt bosqichga bo‘lib o‘rgangan:

**Birinchi davr (1988-1990-yy.)** -jamiyatda O‘zbekiston kompartiyasining yakka hukmronligini bartaraf etish orqali yangi siyosiy partiyalar yuzaga kelishi uchun obyektiv sharoitlarning yetilishi;

**Ikkinchi davr (1991-y.)** -mustaqil O‘zbekiston Respublikasining e‘lon qilinishi, Kompartiyaning tarqalib ketishi, “Erk” demokratik partiyasi hamda O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi tashkil qilinib, ikki partiyali tuzumning yuzaga kelishi, mamlakat Prezidentining ikki partiyali asosda saylanishi;

**Uchinchi davr (1992–1994-yy.)** -ko‘ppartiyaviylikning qonuniy tus olishi (legitimlashuvi), ya‘ni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va unda siyosiy partiyalar mavjudligining huquqiy maqomi belgilanishi, Oliy Kengash va mahalliy Kengashlarga saylov o‘tkazilishi;

**To‘rtinchi davr (1995-yildan boshlab)** -“Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi, Oliy Majlis, mahalliy Kengashlarga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga ko‘ppartiyaviylik asosida saylovlar o‘tkazilishi” [17].

Yuqoridagi yechim hamda holatlarni birlashtirib ular o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqli tomonlarini e‘tibor qaratishimiz mumkin. Diqqatli tomoni shuki, har qaysi ilmiy tadqiqot bayonida o‘zgachalik va yangicha ilmiy jihatlar bor.

Muxtasar qilib aytganda, yuqoridagi tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqot natijalaridan xulosa qilib, O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik paydo bo‘lishining tarixiy-siyosiy rivojini 6 bosqichga taqsimlab o‘rganishni tavsiya etamiz:

**Birinchi bosqich** - yurtimizda yakka partiyaviylikning yakunlashi hamda ko‘ppartiyaviylik shart-sharoitlarining paydo bo‘lishi (1991-1994-yy.).

**Ikkinchi bosqich** - siyosiy partiyalarning siyosiy maqsadlari va saylovoldi tashviqotlarini yaratish, aholining umumiy siyosiy ong va madaniyatini yuksaltirishga yo‘naltirilgan huquqiy asoslarini rivojlantirish davri (1995-1999-yy.).

**Uchinchi bosqich** - partiyalarning siyosiy salohiyat jamlash va siyosiy barkamollikka erishish harakatlarini hal etishi, moliyaviy mustaqilligini amalga oshirishi, jamiyatda o‘z roli va doimiy saylovchilarini belgilab olishi (2000-2004-yy.).

*To'rtinchi bosqich* - partiya fraksiyalarining Oliy Majlis faoliyatidagi va partiya guruhlarining xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari borasidagi harakating yuksalishi, parlamentda muxolafatning yaratilishi (2005-2006-yy.).

*Beshinchi bosqich* - siyosiy partiyalar faoliyatining yangi konstitutsiyaviy qonun orqali muvofiqlashuvi (2007-2016-yy).

*Oltinchi bosqich* - bunda davrga mos xislatlar siyosiy partiya boshqaruvida innovatsion g'oyalarning vujudga kelishi, modernizatsiya holatlari, xalqaro aloqalarning kuchayishi, yangi partiyalar paydo bo'lish jarayonlari va hokazolar (2017-hozirgi davrgacha). Mamlakatimizda ko'ppartiyaviylik tizimi vujudga kelishining obyektiv ahamiyati va shakllanish yo'llari borasida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- Respublikamizda ko'ppartiyaviylikning shakllanishi qiyin, serqirra masala bo'lib, nafaqat mavjud bo'lgan ijtimoiy-siyosiy holatni bilishni, balki respublikamiz va boshqa mamlakatlarning huquqiy-tarixiy mahoratini ham bilishni talab qiladi;

- Siyosiy partiyalarning yaratilish bosqichlari huquqiy, ijtimoiy-falsafiy, sotsiologik, iqtisodiy va boshqa ko'plab xislatlarga ega bo'lib, demokratik islohotlar mobaynida siyosiy partiyalar shakllanishining huquqiy va tashkiliy asoslariga bevosita hissa qo'shgan;

- Demokratiyaga asoslangan o'zgarishlar paytida siyosiy partiyalar yaratilishi, ularning faoliyatini huquqiy tartibga solish yo'llari takomillashuviga ham turtki bo'lib, bosh maqsadi alohida olingan insonlar, ijtimoiy qatlam vakillari va birlashmalar manfaatlarini mustahkamlab berdi.

Davlatimiz rahbari "jamiyat va davlat hayoti haqida hayotning o'zi va xalqning talablari bizning oldimizga amaliy yechimini topish lozim bo'lgan yangi va yanada murakkab vazifalarni qo'ymoqda" [18] deya bildirgan.

Prezidentimizning bu chaqiruvidan shuni tushunib olish kerakki, mamlakatimizning har bir fuqarosi buyuk fuqarolik hissiyoti va daxldorlik hissi bilan davlat ha xalq hayotida faol qatnashishga, har bir jabhada yetakchi bo'lishga, jamiyat masalalarini mukammal hal qilish va davlat rivojiga yordam berishga shubhasiz dav'atdir.

## REFERENCES. IQTIBOSLAR. СНОСКИ.

1. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. 8-tom - T.: "O'zbekiston". 8-tom. -B. 333.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. <https://president.uz/uz/lists/view/1328>
3. Karimov. I.A Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot -pirovard maqsadimiz. 8-tom. - T.: "O'zbekiston", 2000. -B.333
4. Дюверже М. Политические партии / Пер. с франц. -М.: Академический Проект. 2000. С 29.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir). 30.04.2023 // <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
6. <https://xdp.uz/history>
7. <https://adolat.uz/partiya-ustavi>
8. <https://mt.uz>
9. <https://uzlidep.uz/>
10. <https://www.ecouz.uz/ustav>
11. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.: O'zbekiston, 2000. -B.19
12. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1991. -№ 4. -76-modda
13. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi 1997 y. 2-son, 36- modda // O'zbekiston Respublikasi 20.08.1999 y. 832-I-son, 12.12.2003 y. 568- II-son, 30.04.2004 y. 621-II-sonli qonunlar bilan o'zgartirishlar kiritilgan
14. Karimov I.A. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. T.: "O'zbekiston" 2010.
15. "Ijtimoiy-siyosiy va "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga)" O'zbekiston Respublikasining 18.04.2011 y. O'RQ-284-son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining, Axborotnomasi, 2011 y. 4-son, 100-modda
16. Jo'rayev Q. Rivojlangan davlatlarda ko'ppartiyaviylikning shakllanishi -demokratik taraqqiyotning muhim omili sifatida (Fransiya siyosiy tajribasi misolida): Siyosiy fan. nomz. diss. - Toshkent. 1999.
17. Дубков В. Многопартийность как институт формирующегося в Узбекистана гражданского общества // Общественное мнение. Права человека. -Ташкент, 2004. -№ 1. -С. 90
18. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. -T.: "O'zbekiston", 2017. -10 b.